

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

zavodi ta'sirida o'zgarishi	260
M.Sh.Xidirov	
Geographical approaches to improving the territorial structure of service sectors in Kashkadarya region	265
D.X.Jo'raqulova, X.J., Jurakulov B.B. Malikov, Sh.A. Ravshanov	
Janubiy-g'arbiy O'zbekistonda antropogen landshaftlar shakllanishida g'orlarning tutgan o'rni (Surxondaryo havzasi misolida)	271
N.D.Qosimov	
Sangzor havzasining turizm salohiyatini oshirish imkoniyatlari va tabiiy resurslar tahlili	276
X.A.Abduxakimova, A.A.Nematov	
Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlarining agrokimyoviy xossalari va unumdorligi	280
S.A.Ibroximova, D.M.Xoldarov, B.M.Qo'chqorov	
Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarning agrokimyoviy xossalari	287

GEOGRAFIYA

Y.I.Axmadaliyev, O.I.Abduganiev	
Biologik xilma-xillik bo'yicha kunming-monreal global dasturini (GBF) O'zbekistonda amalga oshirishning geoeologik asoslari	293
N.A.Esanov	
Shaharchalarning joylashgan o'rni iqtisodiy-geografik rivojlanish omili (Termiz tumani misolida)	307
M.T.G'oziyeva	
Zominsuv havzasining rekreatsiya resurslardan oqilona foydalangan holda turizmni rivojlantirish yo'llari	313
M.T.G'oziyeva	
Zomin suv havzasida turizmni rivojlantirishiga ta'sir etuvchi tabiiy geografik omillar	317
Sh.M.Sharipov, N.R.Samatova	
Toshkent viloyatida jar eroziyasi xavfi: DEM va GIS tahlili	322
B.A.Dadajonov, A.A.Abdubannopov	
Aqlli ko'chat ekish mashinasi – yashil kelajak uchun innovatsiya	331
O.I.Abduganiev, D.B.Kosimov, Z.I. Mamirova	
Landshaftlardagi bog'lanishni modellashtirish asosida ekologik tarmoqlarni shakllantirish	337
L.M.Saydaliyeva	
Sakral landhsftlarning hosil bo'lishi va funksiyalari	346
A.A.Xamidov	
Farg'ona vodiysi tabiat komplekslarining xx-asrda tadqiq qilinishi natijalari	354
B.A.Dadajonov, A.A.Abdubannopov	
Agroai drone – sun'iy intellektli aqlli qishloq xo'jaligi monitoring platformasi	357
U.T.Egamberdiyeva, A.B.Bozorboyev	
Xovos tumani aholisining joylanishi va demografik rivojlanish xususiyatlari	361
H.N.Naimov	
Shimoliy Farg'ona tog'oldi hududi landshaft-ekologik sharoitining hozirgi holati va uni baholash	367
J.A.Ismatov	
O'zbekiston monoshaharlari aholisi sonining dinamikasi	372
O.I.Abduganiev, T.D.Komilova	
MSPA-Mcr modeli asosida ekologik karkasni shakllantirish va optimallashtirish mezonlari	379
R.Y.Xoliqov, O.A.Qo'chqorov, S.B.Saydullayeva	
Landshaftlarning ekologik holatining o'zgarishi va ularni baholash:(Farg'ona vodiysi yirik shaharlar misolida)	395
B.R.Rapiqov	
Norin-Sirdaryo havzasidagi suv omborlaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari	399

EKOLOGIYA



UO'K: 551.4:61(575.172)

SAKRAL LANDSHFTLARNING HOSIL BO'LISHI VA FUNKSIYALARI

ФОРМИРОВАНИЕ И ФУНКЦИИ САКРАЛЬНЫХ ЛАНДШАФТОВ

FORMATION AND FUNCTIONS OF SACRAL LANDSCAPES

Saydaliyeva Lazokatxon Mahammad qizi 

Farg'ona davlat universiteti, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya yo'nalishi III-bosqich tayanch doktoranti

Annotasiya

Mazkur maqolada sakral landshaftlarning shakllanishi, ularning funksional xususiyatlari va insoniyat madaniy merosidagi o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Sakral landshaft tushunchasining mohiyati, diniy va tabiiy omillar ta'sirida ularning rivojlanish bosqichlari, shuningdek, muqaddas joylarning ekologik, ma'naviy va turistik ahamiyati yoritilgan. Muallif tomonidan sakral landshaftlarning asosiy funksiyalari – ma'naviy-falsafiy, madaniy-tarixiy, tabiiy-ekologik va turistik-rekreatsion jihatlar bo'yicha tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari sakral landshaftlarni madaniy meros va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi geografik tizim sifatida o'rganish zarurligini asoslaydi.

Аннотация

В статье рассматриваются процессы формирования сакральных ландшафтов, их функциональные особенности и значение в культурном наследии человечества. Раскрыта сущность понятия «сакральный ландшафт», показано влияние религиозных и природных факторов на его развитие. Особое внимание уделено духовным, историко-культурным, экологическим и туристско-рекреационным функциям священных территорий. Результаты исследования подтверждают необходимость изучения сакральных ландшафтов как геосистем, обеспечивающих сохранение культурного наследия и экологическую устойчивость.

Abstract

This article explores the formation processes and functional characteristics of sacred landscapes, emphasizing their role in the cultural heritage of humankind. The concept of a "sacred landscape" is analyzed in relation to religious and natural factors shaping its evolution. The study highlights the main functions of sacred landscapes—spiritual-philosophical, cultural-historical, ecological, and touristic-recreational. The findings demonstrate that sacred landscapes should be recognized as vital geographical systems ensuring cultural continuity and ecological sustainability.

Kalit so'zlar. Sakral hudud, muqaddas joy, sakral landshaft, tabiiy – tarixiy tendensiya, diniy tendensiya, sakrallashuv, diniy extiyoj, sakral geografiya.

Ключевые слова. Сакральная территория, сакральное место, сакральный ландшафт, естественно-историческая тенденция, религиозная тенденция, сакрализация, религиозная потребность, сакральная география.

Key words. Sacred territory, sacred place, sacred landscape, natural-historical trend, religious trend, sacralization, religious need, sacred geography.

KIRISH

Sakral hududlar, sakral landshaft yoki muqaddas joy tushunchasi turli xalqlarda dual tushunchalarni hosil qiladi. Bunga ko'ra ijobiy jihatdan Ollohning inoyati bilan yaratilgan joy, salbiy jihatdan tegish taqiqlangan ya'ni tabiiylashtirilgan hudud yoki buyum tushunchalariga ega. Sakral so'zining etimologiyasi lotincha "sacrum" – muqaddas buyum ma'nosiga ega bo'lib, muqaddas obyektlar haqidagi ma'lumotlarni beradi.

Sakral atamasini birinchi marotaba IX asrda Fuld Monaxlari (Germaniya) tomonidan tilga olinadi. Fuld Monaxlari Yevangeniya gormoniyasi so'zini lotincha region-rayon, o'lka, landshaft – yagona muqaddas yer sifatida qaraganlar. Dunyo tarixiy taraqqiyotida muqaddaslashtirilgan hududlar, obyektlar ko'plab uchraydi. Bu tushuncha shuning uchun etnoslarning etnomadaniy xududlari sifatida dastlab 1617 yilda ingliz tilida qo'llanilgan bo'lib, biron bir buyum, obyekt yoki xududga sadoqat ma'nosida keladi. Qadimgi gretsiyada sakral xududlar iero-ierotopiya (Lidom A.M. 2001) tushunchasi bilan izohlanib muqaddas, ilohiy, aziz joy sifatida e'tirof etiladi. Bunday

GEOGRAFIYA

hududlar esa sakral xududlarga mos keladi. Aslida ierotopiya tushunchasi sakral landshaftlarni Olloh tomonidan yaratilgan xududlar degan tushunchaga mos keladi. Ierotopiya ko'pincha ierofaniya atamasi bilan ham almashadi. Sakral landshaft atamasi M.Eliade (1994) tomonidan kiritilgan bo'lib, sakral landshaftlarning vertikal tarkibini bildiradi. Unga ko'ra sakral hududlar diniy, etnik, madaniy faoliyatlar amalga oshiriladigan maydonlar sifatida e'tirof etiladi. Sakral landshaftlar aslida kishilarni faoliyatlari birmuncha cheklangan hududlarni birlashtiradi. Shunga ko'ra dastlab, bunday joylar odamlar kam kelib ketadigan yoki qiyin boradigan, zarar yetkaza olmaydigan aholi yashash joylaridan alohida joylashgan hududlarda shakllangan. Masalan, tog'lardagi g'orlarda, buloqlar, qoyatoshlar, daraxtlar alohida yakka obyekt sifatida sakrallashtirilgan bo'lsa, asta sekin ularni atrofiga ziyoratgohlar, mozorlar, doimiy urf-odatlarini bajaradigan joylar, binolar, masjidlar, ibodatxonalalar qurila boshlangan. Sakral hududlar asta sekin kengayib borib ziyoratgohlarga, muqaddas qadamjolariga aylangan. S.P.Romanchukning (2000) e'tirof etishiga ko'ra sakral landshaftlar tabiiy yoki tabiiy antropogen tizimlar bo'lib, insoniyatni birinchi navbatda diniy va madaniy ehtiyojlarni qondirish funksiyasi uzoq vaqt davomida saqlanib, rivojlanib boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Sakral landshaftlarning funksiyasi sakral obyektlarning funksiyalari bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning eng muhim jihati muhofaza funksiyasi hisoblanadi. Ilohiylashgan har bir obyekt sakral funksiyalarni bajaradi. Sakral landshaftlar insonlarni boshqaruv qobiliyatlari mujassamlashgan geografik makon bo'lib, intellektual faoliyatlar orqali yaratiladi va boshqariladi. Uning moddiy asosi tabiat negizida shakllanadi, ma'naviy asosi esa insonlarning ma'naviy faoliyati tufayli shakllanadi. YUNESKO tasnifiga ko'ra yer sharida sakral landshaftlarning 2 ta asosiy tiplari: tabiiy geografik va madaniy-tarixiy tiplari mavjud. Sakral landshaftlarning eng muhim jihati, funksiyalari ularning makoni joylanishiga bog'liqdir.

M.E.Kuleshovaning fikriga ko'ra sakral landshaftlar tabiiy yoki tabiiy antropogen geotizimlar sifatida va diniy ehtiyojlardan kelib chiquvchi ma'naviy funksiyalarni bajaradi. Sakral landshaftlar ijtimoiy madaniy landshaftlarni bir qismi sifatida yer yuzidagi insonlar guruhini ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi (3)

Hududlarning sakrallashuvida tarixiy shaxslar, dinlar, insonlarni xo'jalik faoliyati, ularning odatlari, an'analari ham muhim ahamiyatga egadir. Hududlarning sakrallashuvida 2 ta muhim tendensiya mavjud: 1. Diniy tendensiya. 2. Tabiiy tarixiy tendensiya.

Diniy tendensiya sakrallashuv jarayonini diniy muassasalar, qadamjolar, ziyoratgohlar, mozorlar, muqaddaslashtirilgan buyumlar, diniy funksiyalarni bajarish bilan bog'liqligini e'tirof etadi.

Tabiiy-tarixiy tendensiya tabiiy-tarixiy obyektlarni sakrallashuvini e'tirof etib, noyob tabiat obyektlarini g'orlar, soyliklar, buloqlar, yakka daraxt, daraxtzorlar, qoyalar, toshlar, tepaliklar, tarixiy obyektlar – qadimgi arxitektura inshootlari, arxeologik topilmalar, tarixiy buyumlarning alohida namunalari yoki majmualar sakral obyektlarni tashkil etishini asoslab beradi.

Sakral landshaftlar o'zida tabiiy, diniy, tarixiy, madaniy-etnik obyektlarni birlashtiradi. Sakral landshaftlar madaniy landshaftlar doirasida juda katta maydonni egallamasligi mumkin, lekin uning funksiyalari tufayli muhofaza qilinib, minglab yillar davomida saqlanib kelinadi. Sakral landshaftlar o'zining tabiiy-tarixiy funksiyalarini saqlash orqali insoniyatni o'z urf-odatlarini, an'analari, diniy urf-odatlarini va madaniyatini shakllantiradi. Landshaftlarni sakrallashuvi orqali tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda etnik, etnoekologik, axloqiy, me'yorlar shakllanadi.

Sakral hududlar, muqaddas qadamjolar, va ularni sakrallashuvi haqidagi tadqiqotlar V.N.Volovik, B.I.Gombaev, M.E.Kuleshova, Yu.A.Vegenin, A.G.Isachenko, V.A.Nikolayev, F.N.Milkov, A.N.Okladnikova, S.P.Romanchuk, A.P.Zebikov, V.N.Kaluskov, O.I.Shabliy, A.I.Vistak, L.V.Ataman, L.Mezinchov, G.Bochuk, Yu.Kogatko kabi ko'plab MDH davlatlari olimlari tomonidan amalga oshirilgan.

V.N.Volovik (1) ning fikriga ko'ra sakral landshaftlarda sakral va profen hududlar bo'lishi shart; etnoslarning bunday sakral hududlardagi faoliyati natijasida etnomadaniy landshaftlar hosil bo'ladi. Aksariyat tadqiqotchilar sakral landshaftlarni madaniy landshaftlarni bir qismi sifatida shakllanishini e'tirof etadilar. M.E.Kuleshova (3) ning ta'rifiga ko'ra sakral landshaftlar madaniy landshaftlarning ya'ni ijtimoiy madaniy hosilaning bir qismi bo'lib, aholining birmuncha katta guruhi-ni yashash muhiti hisoblanadi.

E.A.Okladnikova (7) sakral hududlarni sakral landshaftlarni tarqoq qismlari bo'lib, uni tarkibidagi geografik toposlar – tog', vodi, daraxtzor, dovon, orol, ko'l va boshqalardan iboratdir deydi. Shuning bilan birga sakral hududlar madaniy landshaftlarning mantiq maydonlarini muhim jihatlarni birlashtirib diniy faollikning markazlari hisoblanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, muqaddas joylar sakral landshaftlar hududini qisman yoki to'liq egallashi mumkin va ular sakral landshaftlarni ichki yadrosini hosil qiladi. Avtxtom etnoslarni yashash hududlarida sakral obyektlar va sakral landshaftlarni tabiiy, diniy, tarixiy, etnomadaniy obyektlari hosil bo'ladi va ular ma'lum ma'noda boquvchilik funksiyasini bajaradi. Diniy, ma'naviy, ruhiy ehtiyojlarini qondiradi.

Landshaftlarni sakrallashtirish orqali insoniyatni uni boquvchisiga nisbatan etnik, axloqiy, me'yoriy munosabatlar paydo bo'ladi. Sakral landshaftlar xalqlarning, madaniyatlarining va dinlarning uyg'unligini ifodalaydi, tabiatni muhofaza qilishga da'vat etadi, ekologik madaniyatni shakllantiradi.

Sakral landshaftlarning yaratilishi muayyan xalqlarning tabiatga bo'lgan munosabatlaridan kelib chiqadi. Bu munosabatlarning avloddan avlodga o'tishi, madaniylashuvi, ommalashuvi ro'y beradi.

Ayrim xalqlarda va etnoslarda tabiat bilan bo'lgan munosabatlar diniy urf-odatlar, an'analar tarzida nomoyon bo'lib, diniy hududlar, sabanlar, tosh qurollari, haykallar arxeologik obyektlar sifatida qaralgan. Ularning bajaradigan funksiyalari esa e'tibordan chetda qolib ketgan.

Sakral landshaftlarning ahamiyati shundaki, ular tabiatdagi jamiyat bilan bo'lgan gormonik munosabatlarni yuzaga keltiradi, tabiiy landshaftni vayronalikdan, buzg'unchilikdan saqlaydi. Shuning bilan birga insoniyat madaniyatini, dinini, urf-odatlarini avloddan-avlodga o'tib kelishiga xizmat qiladi.

Sakral landshaftlar tabiat xilma-xilligini saqlaydi, uning noyob obyektlarini ilohiylashtirish, muqaddaslashtirish orqali saqlab qolishga xizmat qiladi. Sakral landshaftlarning dunyo miqyosida o'rganish, ularni zamonalaashtirish, tasniflash, ularni saqlash orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish, YUNESKO tomonidan va uning ilmiy tadqiqotlari yo'nalishi tomonidan amalga oshirilmoqda. Sakral landshaftlar biosfera rezervatlari doirasiga kiritilib, ularni nazoratga olish, muayyan hududlarda tabiatdan foydalanishni tartibga solish ishlari "Federal qonunlar" doirasida amalga oshirilmoqda.

Dunyo miqyosidagi ilmiy tadqiqotlarda, xalqaro konferensiya va forumlarda sakral landshaftlar yoki hududlar haqida yetarlicha ma'lumotlarni yaqin vaqtlarga uchratish qiyin edi. Keyingi 20 yil ichida sakral hududlar yoki muqaddas qadamjolar haqida ma'lumotlar ko'plab uchray boshladi. Bu albatta dunyo mamalakatlari diniy turizmning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Keyingi yillarda sakral hududlar insoniyat madaniyatining mahsuli sifatida qaralib, boy diniy, ma'naviy meros sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa Rossiya hududida olib o'rilgan tadqiqotlar, uning Osiyo qismida, Ural ortida mayda xalqlar va elatlarning diniy qadriyatlari, urf-odatlarini o'rganish asosida sakral hududlarning mantiqiy rivojlangan va bir-biridan farq qiluvchi urf-odatlar, diniy an'analar mavjud bo'lgan bir tizimlari aniqlandi. Mazkur hududlarda sakral landshaftlarning urochishesidan to'g'ri tipigacha bo'lgan kategoriyalari aniqlandi, masalan, Beluxa tog'i Oltoy o'lkasida sakral landshaft toifasidagi joy kategoriyasiga to'g'ri kelsa, Baykal ko'li atroflaridagi butun dunyo ma'naviy merosiga kiritilgan hududlar esa sakral landshaft rayoni yoki probinsiyasini tashkil etadi.

Dunyo miqyosidagi sakrallashtirish nafaqat diniy urf-odatlar, balki, madaniy, ruhiy, ma'naviy jihatdan bo'lgan inson ehtiyojini ham hisobga olishga qaratilgan. Dunyo miqyosida shunday hududlar borki, ularning funksiyasi faqat bitta yo'nalishda bo'lib, insoniyatni diniy, ruhiy, ma'naviy ehtiyojlarini qondirib keladi. Masalan, muqaddas Ka'ba, Makka va Madina shaharlaridagi masjidlar, ziyoratgohlar, Arofat tog'i yoki kavsar bulog'i islom olamining buyuk diniy merosini, uning urf-odatlarini, rasm rusumlarini, e'tiqodlarini poklik jihatlarni namoyon etadi. Bunday buyuk hududlar sakral landshaftlarning yorqin namunalari hisoblanadi. Shuningdek Italiyaning Rim shahri hududida joylashgan Vatikan davlati va uning butun hududi, faoliyati sakral landshaftlar maqomiga mosdir.

GEOGRAFIYA

Sakral landshaftlarni hududiy joylashishi muayyan omillarga bog'liqdir. Ko'pincha holatlarda sakral hududlar bir muncha baland bo'lgan tepaliklar, tog'lar, qir-adirlar hududida joylashgan tepaliklar sun'iy yo'l bilan xosil qilingan baland tepaliklardan iborat.

Bunday sakral hududlar diniy jihatdan yoki turli kasalliklarni davolash uchun ham shu joyning mahalliy tog' jinsi yoki o't giyohlaridan foydalanishi, suvdan iste'mol qilishni talab etadi. Masalan Farg'ona shahri yaqinida joylashgan Satkak buloqlari va unda yashovchi baliqlar aholi o'rtasidagi sariq kasalligini davolashga yordam beradi deb hisoblaydilar. Farg'ona shahri yaqinida Oq tepa ziyoratgohi ham turli kasalliklarni davolashda en bo'lib hizmat qilib kelgan.

Sakral landshaftlar kategoriyasi antropogen landshaft kategoriyasi sifatida o'zida nafaqat sakral hududlarni, ularni yaqinida joylashgan madaniy maishiy, xizmat ko'rsatish, xo'jalik yuritish obyektlarini ham xisobga oladi. Masalan islom olamida ham, xristianlik yoki provaslav dinida ham, buddizmda ham masjidlar, xaramlar, cherkovlar, ibodatxonalar faqat sakral hududlarni emas, balki, bu yerdagi xodimlarni boqish uchun ajratilgan ekin maydonlari, bog'lar, chorva mollarini boquvchi maydonlarni ham birlashtirgan. O'rta Osiyo hududida va Respublikamizda ham joylashgan masjidlar atrofida ularga qarashli vaqf yerlari bo'lgan va din xodimlari bu yerda dehqonchilik, chorvachilik bilan ham shug'ullanganlar.

Sakral landshaft kategoriyasini aniqlashda ularni kishilarni moddiy, ma'naviy, ruhiy, diniy, xo'jalik funksiyalarini amalga oshiruvchi etnomadaniy region sifatida ko'rib, bu yerda etnoslarning muayyan muqaddas joylari bilan bog'liq diniy faoliyatlarini ham nazarda tutadi.

Sakral landshaftlarning evolutsion darajasi etnomadaniyat darajasi bilan bog'liqdir, shunga ko'ra sakral landshaftlarning funksiyalari bilan bog'liq bo'lgan bir qancha tabaqalari ajratiladi. Shunday qilib, sakral landshaftlar kategoriyasining kelib chiqishida etnomadaniy landshaft, madaniy landshaft, tarixiy landshaft, sakral hududlar kabi geografik atamalarning ahamiyati juda kattadir.

Sakral landshaftlar o'zida diniy, tarixiy, madaniy, etnik, etnomadaniy obyektlarni saqlashi bilan birga juda muhim bo'lgan turizm obyekti sifatida e'tirof etiladi. Turizm, davomli yashaydigan, faoliyat ko'rsatadigan, insonning ushbu ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan harakati ziyoratchilik yoki diniy turizm deb ataladi.

Diniy ziyoratgohlar ziyorat turizmining muhim obyektlari hisoblanib, ularning sakrallashuvi turli tarixiy davrlardagi xalqimizning diniy e'tiqodlari va ehtiyojlari negizida ro'y bergan. Diniy ziyoratgohlar sakral obyektlar sifatida sakral geografiyaning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Sakral geografiya sakral obyektlarning kelib chiqishi hududiy joylashuvdagi o'ziga xos qonuniyatlarini o'rganadi.

Ukrainalik filosof Yuriy Zavgorodniy sakral geografiyaning tadqiqot obyekti "muqaddas qadamjolarining ierarxik tashkiliy tuzilmalari (sakral toposlar) sifatida u yoki bu diniy falsafiy an'analarning yer va osmon o'rtasidagi oraliq o'Ichamidan iborat" deb qaraydi [5].

O.Lavrenovanning fikriga ko'ra sakral yoki diniy-mifologik geografiya atrof muhitni muayyan belgili tizimlarga aylanishi va unda belgi sifatida madaniy landshaftlardagi geografik obyektlar yoki elementlar yuzaga keladi. Alohida belgi sifatida esa arxetiplar, transedent tushunchalar, kategoriya va simvollar nomoyon bo'ladi [6].

Sakral geografiya muqaddas joylar, ziyoratgohlarning hududiy joylanishini tabiiy tarixiy, diniy, etnik jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Muqaddaslashuv esa ko'pincha sakral hududlarning diniy kategoriyalariga asoslanadi.

Sakral geografiya hududlarning sakrallashuvini 2 ta aspektda amalga oshirishini e'tirof etadi: 1) diniy aspekt; 2) tabiiy-tarixiy aspekt. Aslida sakral hududlarning shakllanishida har ikkala aspekt bir-birini to'ldiradi. Diniy sakral obyektlar yoki hududlar tabiatning o'ziga xos obyektlari (tepaliklar, g'orlar, buloqlar, o'rmonlar, daryolar)da shakllanadi.

Respublikamiz va jumladan, viloyatimiz hududida joylashgan diniy sakral obyektlarning kelib chiqishi va hududiy joylashishida ham o'ziga xos qonuniyatlar bor. Bu birinchidan, diniy sakral obyektlarning alohida ajralib turuvchi tabiat obyektlarida joylashganligi, qadimgi savdo yo'llari yaqinida joylashganligi, nohush tabiat hodisalari kamroq sodir bo'ladigan hududlarda joylashganligi, o'lkamizga diniy targ'ibotlarni olib kelgan arab lashkarlari, sahobalari nomlari bilan bog'liq joyligi, rekreatsiya, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etish mumkin bo'lgan go'zal tabiat obyektlari va ziyoratgohlarning bir hududda joylashganligi bilan bog'liqdir.

Diniy sakral obyektlar hududiy joylashuviga ko'ra hamda diniy e'tiroflari, urf-odatlar va an'analariga ko'ra birmuncha himoyalangan, tabiiylashgan bo'ladi. Diniy sakral obyektlarning bunday imkoniyati, ularni ko'p asrlar davomida saqlanishiga, muxofaza qilinishiga imkon yaratadi, lekin sobiq sho'rolar davrida yurtimizdagi minglab muqaddas qadamjolar buzib yuborildi, ularni o'rnida uy-joy binolari, ekinzorlar paydo bo'ldi.

Sakral obyektlar muayyan vaqt va makonda shakllanadi, rivojlanadi. Siyosiy vaziyatlar, etnoslar o'rtasidagi nizolar, urushlar tufayli sakral obyektlar buzilib ketishi, vaqtlar o'tishi bilan qayta shakllanishi mumkin. Mamlakatimiz hududida ham turli siyosiy tuzimlarda sakral obyektlarning buzilib ketishi holatlari ko'plab sodir bo'lgan.

Sakral hududlarni kelib chiqishi yoki hududlarning sakrallashuvi ijtimoiy-iqtisodiy, diniy, siyosiy, ma'naviy, ruhiy munosabatlarga bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra sakral obyektlarning funksiyalari ham bir qancha yo'nalishlarni oladi:

Sakral landshaftlarni va ularda joylashgan sakral obyektlarni o'rganish, kishilar hayotida, turmush tarzida ularni ahamiyatini aniqlashda muhim tadqiqot yo'nalishlari, metodlaridan foydalanish, sakral landshaftlarni tasniflash, kartalashtirish, rekreatsiya va turizm obyektlari sifatida targ'ib qilish bu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy negizini tashkil qilmog'i karak.

Sakral landshaft tushunchasini mohiyat va mazmunini aniqlashda turli tadqiqotchilarning qarashlari muhim ahamiyatga egadir:

1-jadval

“Sakral landshaft” tushunchasini aniqlash

Muallif, yil	Tushunchani aniqlash
Moddiy qarash	
Xanseverov F.R. 1999	Sakral hudud – yer yuzasining ma'lum bir qismi bo'lib, u yerda turli davrlar va dinlarning e'tiqod qilish qurilmalari, aniqlangan, ularning izlarini saqlaydi va bu izlar o'tmishdagi va hozirgi qadamjoylar ilohiylikni, ruhni ko'rsatib beradi. Qo'riqsona hudud ilgari va hozir mavjud bo'lgan u yoki bu sehr maktablari nuqtai nazariga ko'ra “e'tiqod qiluvchi kuchlar”ning to'planish joyi.
Rolanchuk S.P. 2000	Tabiiy yoki tabiiy antropogen geotizimlarni sakral landshaftlar deb atashni tavsiya qilamiz, ular ma'naviy funksiyalarni ya'ni birinchi navbatda insonlarning diniy ehtiyojlarini qondiruvchi ziyorat obyektlari sifatida aholining ma'lum tabaqalarini o'zlari bilan muloqot qilish ehtiyojlarini yuzaga keltiradi. Sakral landshaftlarning muhim belgisi ma'naviy (muqaddas yok sakral) funksiyalarini muayyan vaqt davomida (ba'zan minglab yillar), diniy va etnik e'tiqodlari o'zgarishidan qat'iy nazar bajarishdan iboratdir.
Kuleshova M.E. 2002	Sakral landshaft – bu madaniy landhsftning birmuncha yirik sotsial-madaniy qismi bo'lib, kishilar guruhlik saqlab qoluvchi maydon, hayot muhitidir. Sakral landshaftning hududi bir vaqtning o'zida yaxlit va strukturali holda tabiiy va madaniy komponentlarni o'zida birlashtiradi va u utilitar o'zlashtirilgan, semantik va ramziy ma'noga egadir.
Ma'naviy qarash	
Grodzinskiy M.D 2005	Sakral landshaft – bu muqaddas hudud timsoli, joyning ahamiyati, konfiguratsiyasi insonlarning muayyan guruhlari tomonidan oliy kuchlarning namoyon bo'lishi sifatida e'tirof etiladi.
Kovalev A.P. 2009	Ma'naviy (sakral) landshaft – bu qandaydir yoki shunga o'xshash ma'naviy kuchlarning, sakral obyektlarning yer yuzasida taqsimlanishidir.

Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi mualliflarning sakral landshaft tushunchasini aniqlashdagi qarashlari tabiatdan moddiy va manaviy jihatdan farq qilsada, ularning bajaradigan funksiyalarini o'zaro mutanosibligini

GEOGRAFIYA

etirof etadilar. Shunga ko'rasakral landshaftlarning xosil bo'lishining tabiiy-tarixiy jihatlarini quyidagilarga asoslanadi.

XULOSA

Sakral hududlar turli xalqlar va etnoslarning turmush tarzi, urf odatlari, diniy etiqodlari, ruxiy kechinmalari asosida shakllangan muayyan maqsadlarga xizmat qiluvchi muqaddaslashtirilgan tabiiy-tarixiy, ijtimoiy-madaniy obyektlarni areallarini birlashtiradi. Sakral hududlar muqaddas qadamjoylar sifatida etnoslarning xoxish va istaklarini amalga oshiradigan sakral obyektlar, kelib chiqishi tabiiy-tarixiy bo'lgan tog'lar, g'orlar, buloqlar, daraxtlar muqaddaslashtirilgan toshlardan tortib, tarixiy-madaniy obyektlargacha o'zida birlashtirib, sakral landshaftlarning xosil bo'lishining tabiiy va tarixiy jihatlarini tadqiq etish, ularni funksiyalarini o'rganish ziyorat turizmini tashkil etishda muhim ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Воловик В.Н. Категория сакрального ландшафта URL: <http://www.geo-vestnik.psu.ru> электронная версия.
2. Воловик В.Н. Категория сакрального ландшафта. <http://www.geo.vsu.ru/nick/psu/it> электронная версия.
3. Завгородний Сакральная география и феномен паломничества. // Мир туриста. 2013. Электронная версия.
4. Кулешова М. Е. Управление культурными ландшафтами и иными объектами историко-культурного наследия в национальных парках. М.: Изд-во Центра охраны дикой природы, 2002 – 105 с.
5. Лавренова О.А., Кривых А. Культурный, сакральный ландшафт и понятие пространства. // Биосфера. Электронная версия.
6. Лидов А.М. Иеротопия, создание сакральных пространств как вид искусства. 2014.
7. Окладникова Е.А. Сакральные аспекты географической действительности. // <https://www.kniga.com/books/review>
8. Saydaliyeva L. M. Formation of Medical Geographical Environment in Fergana Region //Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2023. – Т. 10. – №. 11. – С. 366-369.